



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	



SHAHAR VA QISHLOQ YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNING QIYOSIY TAHLILI

Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna

Termiz davlat universiteti
Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

Panjiyeva Nargiza Botirovna

Termiz davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shahar (Termiz) va qishloq (Angor) hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatleri Mann–Whitney U mezonini asosida qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, matonat, tirishqoqlik, g'ayratlilik, ziyraklik va sobitqadamlik kabi irodaviy sifatlar o'rganildi. Olingan natijalar ayrim irodaviy sifatlar bo'yicha hududlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligini, ayrim ko'rsatkichlarda esa farq kuzatilmaganligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari irodaviy sifatlarning shakllanishida ijtimoiy muhit va hududiy omillarning muhim rolini ochib beradi.

Kalit so'zlar: iroda, irodaviy sifatlar, yuqori sinf o'quvchilari, shahar va qishloq, Termiz, Angor, Mann-Whitney U mezonini, qiyosiy tahlil, psixologik tadqiqot.

Abstract: This article presents a comparative analysis of volitional (willpower) qualities of senior school students studying in urban (Termiz) and rural (Angor) areas based on the Mann-Whitney U test. The study examined such volitional traits as responsibility, initiative, decisiveness, independence, resilience, diligence, enthusiasm, attentiveness, and perseverance. The obtained results showed that there are statistically significant differences between the groups in some volitional traits, while no significant differences were found in others. The findings demonstrate the important role of social environment and territorial factors in the formation of volitional qualities.

Key words: will, volitional qualities, senior school students, urban and rural areas, Termiz, Angor, Mann-Whitney U test, comparative analysis, psychological research.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ волевых качеств учащихся старших классов, обучающихся в городских (Термез) и сельских (Ангор) районах, на основе критерия Манна–Уитни. В рамках исследования были изучены такие волевые качества, как ответственность, инициативность, решительность, самостоятельность, выносливость, трудолюбие, энергичность, внимательность и настойчивость. Полученные результаты показали наличие статистически значимых различий между группами по ряду волевых качеств, тогда как по некоторым показателям различий не выявлено. Результаты исследования подчеркивают важную роль социальной среды и территориальных факторов в формировании волевых качеств.

Ключевые слова: воля, волевые качества, учащиеся старших классов, город и село, Термез, Ангор, критерий Манна-Уитни, сравнительный анализ, психологическое исследование.

KIRISH

Inson shaxsining shakllanishida iroda muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Iroda insonning ongli ravishda maqsad qo'yishi, unga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga olishi hamda o'z xatti-harakatlarini boshqara bilishida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida iroda shaxsning ichki faolligini belgilovchi, uning qat'iyatlilik, sabr-toqat, mustaqillik va mas'uliyat kabi sifatlarini shakllantiruvchi murakkab psixik jarayon sifatida talqin etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mashhur rus psixologi L. S. Vigotskiy irodaning rivojlanishini insonning ijtimoiy muhiti va tarbiyasi bilan bog'liq holda izohlagan. Uning fikricha, shaxsning irodaviy sifatleri faoliyat jarayonida hamda jamiyat bilan o'zaro munosabatlar asosida shakllanadi.



Shuningdek, L. S. Rubinshteyn iroda insonning ongli faoliyati mahsuli ekanligini ta'kidlab, irodaviy harakatlarni maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bilan bog'lagan.

A. N. Leontev esa irodaning shakllanishida motiv va ehtiyojlarning ahamiyati katta ekanligini ilmiy asoslab bergan. Taniqli o'zbek psixologi, professor E. G'. G'oziyev fikricha: "Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi".¹

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ham o'smirlik va yuqori sinf davri irodaviy sifatlarning faol rivojlanish bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mas'uliyatni his qilish, o'zini boshqara olish hamda hayotiy maqsadlarni belgilash jarayoni kuchayadi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning yashash muhiti, oilaviy sharoiti, ijtimoiy munosabatlari va ta'lim muhiti ularning irodaviy sifatlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turli hududlardagi ijtimoiy muhit, hayot tarzi va tarbiyaviy omillar o'quvchilarning psixologik rivojlanishida muayyan farqlarni yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqot ana shu jihatlarni ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot shahar va qishloq hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlari qiyosiy tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 18-umumta'lim maktabi hamda Angor tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilaridan iborat jami 68 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 33 nafari o'g'il bolalar va 35 nafari qiz bolalarni tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida psixodiagnostik metodika, qiyosiy tahlil hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Respondentlarning mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, matonat, tirishqoqlik, g'ayratlilik, ziyraklik va sobitqadamlik kabi irodaviy sifatlari o'rganildi.

Olingan ma'lumotlarning taqsimot xususiyatlarini aniqlashda Kolmogor-Smirnov mezonini, shahar va qishloq hududlaridagi o'quvchilar ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishda esa Mann-Whitney U mezonidan foydalanildi. Statistik natijalar $p < 0,05$ ahamiyatlilik darajasi asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Sinaluvchilarning jins ko'rsatkichlari diagrammasi

Irodani tahlil qilish bo'yicha tadqiqotimiz jami 68 nafar sinaluvchida o'tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 33 nafari o'g'il bolalar (48,5%), 35 nafari esa qiz bolalar (51,5%)ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar respondentlar tarkibida jinslar o'rtasida deyarli muvozanat mavjud ekanini ko'rsatadi va bu holat tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda xolisligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqot ishtirokchilari Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 18-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilari hamda Angor tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan iborat bo'ldi. Mazkur ta'lim muassalarining tanlanishi shahar va qishloq hududlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning irodaviy sifatlari qiyosiy jihatdan o'rganish imkonini berdi.

1 E. G'. G'oziyev Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. Toshkent - "Universitet" – 2002.



Tadqiqotimizning keyingi bosqichini Kolmogor–Smirnov tahlil mezonini asosida davom ettirdik (1-jadval).

1-jadval: Kolmogor–Smirnov mezonini asosidagi tahlil (N = 68)

Shkalalar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Z qiymat	P ishonchlilik darajasi
Mas'uliyatlilik	4,22	1,505	1,824	0,003**
Tashabbuskorlik	4,69	1,704	1,078	0,195
Qat'iyatlilik	3,22	1,291	1,502	0,022*
Mustaqillik	3,49	1,440	1,394	0,041*
Matonat	6,21	2,334	1,108	0,172
Tirishqoqlik	1,35	1,130	2,345	0,000***
G'ayratlilik	6,04	1,569	1,115	0,166
Ziyraklik	3,31	1,623	1,714	0,006*
Sobitqadamlik	5,62	1,546	1,412	0,037*

Tadqiqotimiz natijalari tahliliga ko'ra, mas'uliyatlilik shkalasida: Z qiymat 1,824; p qiymat - 0,05 (D = 1,723; $p < 0,05$) ga teng. Ushbu shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Tashabbuskorlik shkalasida: Z qiymat 1,078; p qiymat - 0,05 (D = 1,078; $p > 0,19$) ga teng. Ushbu shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Qat'iyatlilik shkalasi bo'yicha: Z qiymat - 1,502; p qiymat - 0,05 (D = 1,502; $p < 0,05$) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Mustaqillik shkalasi tahliliga ko'ra: Z qiymat - 1,394; p qiymat - 0,05 (D = 1,394; $p < 0,05$) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Matonat shkalasida Z qiymat - 1,108; p qiymat - 0,05 (D = 1,108; $p > 0,05$) ga teng. Ushbu shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Tirishqoqlik shkalasida Z qiymat - 1,412; p qiymat - 0,05 (D = 1,412; $p < 0,05$) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

G'ayratlilik shkalasi bo'yicha: Z qiymat - 1,115; p qiymat - 0,05 (D = 1,115; $p > 0,05$) ga teng. Ushbu shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Ziyraklik shkalasida Z qiymat - 1,714; p qiymat - 0,05 (D = 1,714; $p < 0,05$) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Sobitqadamlik shkalasida Z qiymat - 1,714; p qiymat - 0,05 (D = 1,714; $p < 0,05$) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatleri bo'yicha ayrim shkalalarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjud, ayrimlarida esa bunday farqlar aniqlanmadi. Noparametrik va parametrik tahlil natijalari asosida guruhlar o'rtasidagi irodaviy sifatlar turlicha darajada namoyon bo'lishi aniqlandi.

Xususan, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, mustaqillik, tirishqoqlik, ziyraklik hamda sobitqadamlik shkalalarida olingan natijalar ($p < 0,05$) guruhlar o'rtasida ishonchli statistik farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur irodaviy sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit, ta'lim sharoiti va hududiy farqlar sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Biroq tashabbuskorlik, matonat va g'ayratlilik shkalalarida olingan natijalar ($p > 0,05$) bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bu holat ushbu irodaviy sifatlarining har ikkala guruhda nisbatan bir xil darajada rivojlanganligini bildiradi. Tadqiqotimiz natijalari shahar va qishloq hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatleri bir xil darajada emasligini, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning individual va hududiy xususiyatlarini hisobga olish muhimligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, shkalalarimizning 60% dan ortig'i noparametrik tahlil qilingani uchun tadqiqotimizning keyingi bosqichini Mann-Whitney U mezonini asosida davom ettirdik (2-jadval).



2-jadval: Mann-Whitney U mezonida statistik qiyosiy tahlil (N = 68)

Shkalalar	Sinaluvchilarning jins ko'rsatgichi	N	O'rtacha rang	U	p
Mas'uliyatlilik	yigitlar	33	40,80	369,500	0,008*
	qizlar	35	28,56		
Tashabbuskorlik	yigitlar	33	37,73	471,000	0,183
	qizlar	35	31,46		
Qat'iyatlilik	yigitlar	33	40,12	392,000	0,019*
	qizlar	35	29,20		
Mustaqillik	yigitlar	33	32,02	495,500	0,303
	qizlar	35	36,84		
Matonat	yigitlar	33	38,08	459,500	0,143
	qizlar	35	31,13		
Tirishqoqlik	yigitlar	33	40,82	369,000	0,006**
	qizlar	35	28,54		
G'ayratlilik	yigitlar	33	36,61	508,000	0,383
	qizlar	35	32,51		
Ziyraklik	yigitlar	33	39,94	398,000	0,024*
	qizlar	35	29,37		
Sobitqadamlik	yigitlar	33	32,18	501,000	0,337
	qizlar	35	36,69		

Bu metodikamizning mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha 95% lik ishonch darajasida jins tafovutida farq kuzatildi. O'rtacha rang qiymatini hisobga olgan holda yigitlarda mas'uliyatlilik yuqori darajada ekanligini aniqladik. Bu holat o'g'il bolalar guruhida mas'uliyat hissi va majburiyatlarga nisbatan barqaror munosabat nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Tashabbuskorlik shkalasi bo'yicha jinslar o'rtasida 95% ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmadi. O'rtacha rang qiymatlari tahliliga ko'ra, o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlarida o'rtasida tashabbuskorlik ko'rsatkichi deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat mazkur irodaviy sifatning har ikkala guruhda nisbatan teng darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

Qat'iyatlilik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi. O'rtacha rang ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida o'g'il bolalar guruhida qat'iyatlilik darajasi qiz bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Ushbu natija o'g'il bolalarda maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va qaror qabul qilishda nisbatan barqarorlik xususiyatlarining kuchliroq namoyon bo'lishini anglatadi.

Mustaqillik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq kuzatilmadi. O'rtacha rang ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlarida mustaqillik darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Ushbu natija mazkur irodaviy sifatning har ikkala jins vakillarida nisbatan teng darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

Matonat shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalari 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq mavjud emasligini ko'rsatdi. O'rtacha rang qiymatlari tahlili shuni anglatadiki, o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlarida matonat ko'rsatkichi deyarli bir xil darajada namoyon bo'lgan. Bu holat har ikki guruh vakillarida qiyinchiliklarga bardosh berish, maqsad yo'lida qat'iyatni saqlab qolish va ichki ruhiy barqarorlik kabi jihatlar nisbatan o'xshash darajada shakllanganligini ifodalaydi.

Tirishqoqlik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi. O'rtacha rang qiymatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalarda tirishqoqlik darajasi qiz bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Ushbu natija o'g'il bolalar guruhida maqsadga intilish, mehnat qilishda barqarorlik va qiyinchiliklarga qaramay faol harakatni davom ettirish xususiyatlari nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishini ifodalaydi.

G'ayratlilik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq kuzatilmadi. O'rtacha rang ko'rsatkichlari tahlili o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlarida o'rtasida g'ayratlilik darajasi deyarli bir xil ekanligini ko'rsatdi. Bu esa har ikki guruh vakillarida faollik, harakatga intilish va maqsad sari yondashuv nisbatan teng darajada shakllanganligini anglatadi.



Ziyraklik shkalasi bo'yicha statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi. O'rtacha rang tahlili shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalar guruhida ziyraklik ko'rsatkichi qiz bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Ushbu natija o'g'il bolalarda vaziyatni tez anglash, diqqatni jamlash hamda muammoli holatlarga tezkor reaksiya bildirish kabi psixologik xususiyatlar nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Sobitqadamlik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farq mavjud emasligi aniqlandi. O'rtacha rang ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlari o'rtasida sobitqadamlik darajasi deyarli bir xil ekanligi kuzatildi. Bu natija har ikki jins vakillarida maqsadga sodiqlik, boshlagan faoliyatini yakuniga yetkazish hamda ichki barqarorlik kabi irodaviy xususiyatlar bir xil darajada shakllanganligini ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval: Mann–Whitney U mezonida statistik qiyosiy tahlil (N = 68)

Shkalalar	Sinaluvchilarning hududi	N	O'rtacha rang	U	p
Mas'uliyatlilik	Termiz	33	32,27	504,000	0,350
	Angor	35	36,60		
Tashabbuskorlik	Termiz	33	40,24	388,000	0,018*
	Angor	35	29,09		
Qat'iyatlilik	Termiz	33	27,33	341,000	0,003*
	Angor	35	41,26		
Mustaqillik	Termiz	33	30,83	456,500	0,128
	Angor	35	37,96		
Matonat	Termiz	33	31,21	469,000	0,178
	Angor	35	37,60		
Tirishqoqlik	Termiz	33	34,74	569,500	0,916
	Angor	35	34,27		
G'ayratlilik	Termiz	33	33,61	548,000	0,711
	Angor	35	35,34		
Ziyraklik	Termiz	33	26,92	327,500	0,002*
	Angor	35	41,64		
Sobitqadamlik	Termiz	33	36,70	505,000	0,363
	Angor	35	32,43		

Tadqiqotimizda shahar (Termiz) va qishloq (Angor) hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilari-ning irodaviy sifatleri Mann-Whitney U mezonida qiyosiy tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, ayrim shkalalarda hududlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligi, ayrimlarida esa farq kuzatilmaganligi aniqlandi.

Mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha hududlar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi ($p = 0,350$). O'rtacha rang ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, Termiz va Angor o'quvchilari mas'uliyatlilik darajasi bo'yicha deyarli bir-biriga yaqin natija qayd etgan.

Tashabbuskorlik shkalasi bo'yicha esa statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi ($p = 0,018$). O'rtacha rang qiymatlariga ko'ra, Termiz shahridagi o'quvchilarda tashabbuskorlik ko'rsatkichi Angor tumaniga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Bu holat shahar muhitida o'quvchilarning faolroq ijtimoiy va ta'limiy muhitga ega bo'lishi bilan izohlanishi mumkin.

Qat'iyatlilik shkalasi bo'yicha ham ahamiyatli farq kuzatildi ($p = 0,003$). Tahlil natijalariga ko'ra, Angor tumanidagi o'quvchilarda qat'iyatlilik darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu esa qishloq muhitida shakllangan mehnatsevarlik va sabr-toqat xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mustaqillik, matonat, tirishqoqlik, g'ayratlilik va sobitqadamlik shkalalarida esa hududlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$). Bu natijalar mazkur irodaviy sifatlar har ikkala hudud o'quvchilarida deyarli bir xil darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

Ziyraklik shkalasi bo'yicha esa hududlar o'rtasida sezilarli farq mavjudligi aniqlandi ($p = 0,002$). O'rtacha rang qiymatlariga ko'ra, Angor tumanidagi o'quvchilarda ziyraklik darajasi Termiz shahriga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar va qishloq hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatleri to'liq bir xil emas. Ayrim irodaviy sifatlar hududga bog'liq holda farq qilsa, ayrimlari deyarli teng darajada rivojlangan. Bu esa irodaviy sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit, ta'lim sharoiti va yashash tarzining muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar (Termiz) va qishloq (Angor) hududlarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatleri bir xil darajada shakllanmagan bo'lib, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farqlar, ayrimlarida esa o'xshashliklar mavjud. Mann–Whitney U mezonini asosidagi tahlil natijalari hudud omili ayrim irodaviy sifatlarining rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik va ziyraklik kabi irodaviy sifatlarda hududlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar kuzatildi. Bu holat ushbu sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit, ta'lim sharoiti va tarbiya jarayonining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mustaqillik, matonat, tirishqoqlik, g'ayratlilik va sobitqadamlik kabi sifatlarda sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa mazkur irodaviy sifatlar har ikkala hudud o'quvchilarida deyarli bir xil darajada rivojlanganligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari irodaviy sifatlarining shakllanishi juda murakkab va ko'p bosqichli psixologik jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu jarayon faqatgina shaxsning ichki xususiyatlari bilan emas, balki uning kundalik hayoti, tarbiya muhiti, ta'lim jarayoni hamda ijtimoiy munosabatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining irodaviy rivojlanish darajasi uning shaxsiy faolligi bilan bir qatorda u yashayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, madaniy muhiti va ta'lim tizimi imkoniyatlariga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, oila tarbiyasi, maktabdagi pedagogik yondashuvlar hamda tengdoshlar bilan bo'lgan muloqot ham irodaviy sifatlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Demak, irodaviy sifatlar bir zumda shakllanadigan emas, balki uzoq davom etadigan ijtimoiy va psixologik ta'sirlar natijasida rivojlanadigan murakkab tizim sifatida qaralishi lozim. Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, shaxsning irodaviy yetukligi uning jamiyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, maqsadga intiluvchan va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. E.G'.G'oziyev. Umumiy Psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik Toshkent - "Universitet", - 2002[1]
3. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers, 2019. - 910 p <https://www.amazon.com/Psychology-9th-David-G-Myers/dp/1429215976>
4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy Psixologiya. 2008.
5. Sharafutdinova X.G., Jo'rayeva S.N., Mamaradjabova B.A. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent.: 2022-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.